

## MUSTAQILLIK YILLARIDA MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

**Qudratov N.**

**Termiz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası o‘qituvchisi**

**Himmatov R.**

**Tarix ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20610570>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng madaniyat va san‘at sohasida amalga oshirilgan islohotlar, milliy madaniy merosni tiklash va rivojlantirish jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiy-madaniy yodgorliklarni asrash va restavratsiya qilish, muzeylar, teatrlar, musiqa va tasviriy san‘atning rivojlanishi, xalq amaliy san‘ati hamda milliy qadriyatlarini tiklash masalalari yoritilgan. Shuningdek, mustaqillik yillarida madaniyat va san‘at sohasida amalga oshirilgan davlat siyosati, xalqaro madaniy hamkorlik, UNESCO bilan aloqalar va milliy merosning jahon miqyosida targ‘ib etilishining ahamiyati ochib berilgan. Maqolada madaniyatning jamiyat ma’naviy taraqqiyotidagi o‘rni hamda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston Respublikasi, mustaqillik, madaniyat, san‘at, madaniy meros, milliy qadriyatlar, ma’naviyat, muzeylar, teatr san‘ati, maqom san‘ati, xalq amaliy san‘ati, UNESCO, tarixiy yodgorliklar, madaniy islohotlar, ma’naviy taraqqiyot

**Abstract:** This article analyzes the reforms implemented in the fields of culture and art in the Republic of Uzbekistan after gaining independence, as well as the processes of restoring and developing the national cultural heritage. The study highlights the preservation and restoration of historical and cultural monuments, the development of museums, theaters, music, and fine arts, as well as the revival of folk crafts and national values. Particular attention is paid to the state policy in the sphere of culture and art during the years of independence, international cultural cooperation, relations with UNESCO, and the promotion of national heritage on the global stage. The article also substantiates the role of culture in the spiritual development of society and its significance in educating the younger generation in the spirit of national and universal values.

**Keywords:** Republic of Uzbekistan, independence, culture, art, cultural heritage, national values, spirituality, museums, theater art, maqom art, folk applied arts, UNESCO, historical monuments, cultural reforms, spiritual development.

**Аннотация:** В данной статье анализируются реформы, осуществлённые в сфере культуры и искусства Республики Узбекистан после обретения независимости, а также процессы возрождения и развития национального культурного наследия. В исследовании освещены вопросы сохранения и реставрации историко-культурных памятников, развития музеев, театров, музыкального и изобразительного искусства, народных художественных промыслов и национальных ценностей. Особое внимание уделено государственной политике в области культуры и искусства в годы независимости, международному культурному сотрудничеству, взаимодействию с ЮНЕСКО и популяризации национального наследия на мировом уровне. В статье также научно обоснована роль культуры в духовном развитии общества и её значение в воспитании молодого поколения в духе национальных и общечеловеческих ценностей.

**Ключевые слова:** Республика Узбекистан, независимость, культура, искусство, культурное наследие, национальные ценности, духовность, музеи, театральное искусство, искусство макома, народное прикладное искусство, ЮНЕСКО, исторические памятники, культурные реформы, духовное развитие.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jamiyat hayotining barcha sohalarida bo‘lgani kabi madaniyat va san’at tizimida ham tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Sobiq ittifoq davrida mafkuraviy qoliqlar asosida shakllantirilgan madaniy siyosat o‘rniga milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma’naviy merosni tiklashga qaratilgan yangi yondashuv vujudga keldi. Bu jarayon mamlakatning siyosiy mustaqilligi bilan bir qatorda ma’naviy mustaqilligini ham ta’minlashga xizmat qildi.<sup>1</sup> Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq xalqning ko‘p asrlik tarixiy tajribasi, milliy an’analari va urf-odatlarini qayta tiklash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Chunki har qanday xalqning taraqqiyoti uning tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari va madaniy merosiga bo‘lgan munosabati bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasida amalga oshirilgan islohotlar jamiyatning ma’naviy yangilanishi bilan uzviy aloqada kechdi.<sup>2</sup>

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, tarixiy xotirani tiklash va ajdodlar merosini chuqur o‘rganish milliy o‘zlikni anglashning muhim omillaridan biridir. Shu sababli mustaqillikning ilk yillarida Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimizning ilmiy va madaniy merosini o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ularning yubileylari xalqaro miqyosda nishonlanib, ilmiy anjumanlar, ko‘rgazmalar va madaniy tadbirlar tashkil etildi.<sup>3</sup>

Madaniyat va san’at sohasidagi islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri tarixiy-madaniy meros obyektlarini asrash va ta’mirlash bilan bog‘liq bo‘ldi. Mustaqillikdan keyingi davrda Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz va boshqa qadimiy shaharlardagi me’moriy yodgorliklarni restavratsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli dasturlar amalga oshirildi. Natijada ko‘plab tarixiy obidalar qayta tiklandi va ularning asl qiyofasini saqlab qolishga erishildi. Bu esa nafaqat milliy madaniyatni rivojlantirishga, balki xalqaro turizm salohiyatini oshirishga ham xizmat qildi.<sup>4</sup>

Mustaqillik yillarida muzeylar faoliyatini takomillashtirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi. Respublikada yangi muzeylar tashkil etilib, mavjud muzeylarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Xususan, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi va boshqa madaniy muassasalarning tashkil etilishi tarixiy haqiqatni tiklash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi. Madaniyat va san’at sohasidagi islohotlar teatr san’ati rivojida ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Mustaqillik yillarida teatrlarning ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, milliy dramaturgiyani rivojlantirish va zamonaviy sahna asarlarini yaratish uchun qulay sharoitlar yaratildi. Teatrlar repertuarida milliy tarix, buyuk ajdodlar hayoti va xalq qahramonlari faoliyatini aks ettiruvchi sahna asarlari muhim o‘rin egallay boshladi. Bu esa tomoshabinlarning tarixiy ongini shakllantirishga xizmat qildi. O‘zbek milliy musiqa san’ati ham mustaqillik yillarida yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi. Maqom san’ati, baxshichilik, folklor va an’anaviy ijrochilik maktablarini saqlab qolish hamda rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari amalga oshirildi. Xalqaro maqom festivali va

<sup>1</sup>Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – T.: Ma’naviyat.

<sup>2</sup>Azizxo‘jayev A. *Davlatchilik va madaniyat*. – T.: Sharq, 1997.

<sup>3</sup>Karimov I.A. *Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q*.

<sup>4</sup>Azamat Ziyo. *O‘zbek davlatchiligi tarixi*.

xalqaro baxshichilik san’ati festivali kabi nufuzli tadbirlarning tashkil etilishi milliy musiqa merosining dunyo miqyosida tanilishiga imkon yaratdi.<sup>5</sup>

Tasviriy va amaliy san’at sohalarida ham muhim o’zgarishlar yuz berdi. Mustaqillik yillarida rassomlar va hunarmandlarning ijodiy faoliyatini qo’llab-quvvatlash maqsadida ko’plab ko’rgazmalar, tanlovlar va festivallar o’tkazildi. Milliy miniatyura, naqqoshlik, kulolchilik, zargarlik va kashtachilik san’ati an’analarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada xalq amaliy san’atining ko’plab turlari qayta tiklandi va yangi taraqqiyot bosqichiga ko’tarildi.<sup>8</sup> Shuningdek, madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishda ta’lim tizimining o’rni ham muhim bo’ldi. San’at maktablari, musiqa va madaniyat kollejlari hamda oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash sifati oshirildi. Iqtidorli yoshlarni qo’llab-quvvatlash maqsadida turli tanlov va grantlar joriy etildi. Bu esa kelajakda milliy madaniyat va san’at rivojiga hissa qo’shadigan yangi avlod vakillarini tarbiyalash imkonini berdi.

Ibtidoiy odam o’zini tabiatdan ajratmaydi va tabiat kuchlari hamda hodisalari bilan aynan bir narsa deb hisoblaydi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi diniy tasavvurlarning ilk shakllari quyidagilarga bo’linadi:

- a) animizm;
- b) totemizm;
- v) magiya (afsungarlik, sexrgarlik);
- g) fetishizm;
- d) shomonizm.

San’at ham kishilik jamiyatining ilk bosqichlari ibtidoiy odamning tabiat xodisalariga bo’lgan munosabatlari natijasida paydo bo’lgan ma’naviy madaniyatning asosiy elementlaridan biridir. San’at odamning estetik sezgisi, uning ma’naviy rivojlanishi jarayonida, tabiatga xos bo’lgan takomillikdan, go’zallik va oxangdorlikdan ta’sirlanish, odam o’z mexnati bilan yaratgan narsalarda tabiatning sifatlarini ko’rsata boshlaganida va o’z sezgisi hamda fikrlari hayotning turli xil voqealarini ifodalay boshlagan davrlarda vujudga kelgan.

Ibtidoiy san’at va uning barcha turlarining umumiy manbai mehnatdir, odamning mehnat faoliyatidir. Ibtidoiy san’at va uning barcha turlari o’z moxiyati, mazmuni bo’yicha odamning mehnat faoliyati bilan bog’liq bo’lgan sezgisi, kayfiyati va fikrlarini ifodalash shaklidan boshcha narsa emas. Orn’yak – salyutr bosqichiga kelib, tasviriy san’at vujudga kela boshlagan. Toshga, suyakka juda sodda ko’rinishdagi suratlar tasviri tushirila boshlagan. Agar usha davrda ibtidoiy odamlar tomonidan ishlangan suratlar nazar tashlansa, ko’proq hayvonlar va noaniq aks ettirilgan insonlar tasvirini ko’ramiz, Madlen bosqichiga kelgach tasviriy san’at asarlari bir muncha mukammallasha borgan.

Neolit davri tasviriy san’ati asosan turli xil shakllarga boy bo’lgan manzarali tasvir yo’li bilan rivojlanadi. Bu davrga kelib, odamga xizmat qiluvchi, hatto kundalik turmushda ishlatiladigan oddiy buyumlarni, chunonchi, loydan ishlangan idishlarni ham bo’yashga harakat qilishgan. Kiyimlar, uy jihozlari, qurollarga ham turli xil, ba’zan juda chiroyli naqshlar solingan. Musiqa san’ati mehnat jarayonida paydo bo’lgan. Ashula ham ish vaqtida chiqadigan ovozlardan va odamning harakatdagi ritmik bilan chambarchas bog’liq holda paydo bo’lgan, ya’ni ashula dastlab ritmga solingan nuqtadan iborat bo’lgan.

Har bir ijtimoiy tuzum o’zi uchun qulay madaniyat tizimini yaratadi. Mustabid sovet tuzumi davrida kommunistik mafkuraga xizmat qiladigan yagona markazlashtirilgan

<sup>5</sup> Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birga quramiz.*

madaniyat tizimi yaratilib, unga kommunistik partiya rahbarlik qilar edi. Sovetlarga madaniyat asosan kommunistik g’oyalarni targ’ib qilish, o’z hokimiyatini mustahkamlash uchun kerak edi. Kommunistlar mamlakatda o’ziga xizmat qiladigan va mavqeyini mustahkamlaydigan sotsialistik madaniyatni rivojlantirish uchun mablag’ini ayamasdi.

O’zbekiston Respublikasida iqtisodiy, siyosiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ma’naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga yetkazish borasida keng ko’lamda faoliyat olib borilmoqda.

Madaniy meros – qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, ota- boboblarimizdan bizgacha yetib kelgan ma’naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq – odob me’yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san’at asarlari majmuidir. Har bir avlod ma’naviyatni yangidan yaratmaydi, mavjud ma’naviy merosga tayanadi, biroq uni qanday bo’lsa shundayligicha, ko’r-ko’rona qabul qilavermaydi, taraqqiyparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtai nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi.

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng demokratik fuqarolik, odil jamiyat qurish maqsad qilib olindi. Madaniyat komil insonni shakllantirishga xizmat qila boshladi. Bu borada ulkan tarixiy va jahonshumul ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

✓ qadimiy tariximizning haqqoniy, chuqur va har tomonlama o’rganilishi, tarixiy mavzulardagi sovet davrida taqiqlangan asarlarning chop etilishi xalqimiz milliy-tarixiy ongini shakllantirishda muhim rol o’ynamoqda;

✓ sovetlar davrida man qilingan yoki cheklangan madaniy qadriyatlar: tarixiy xotira, milliy ong, milliy ruh, diniy e’tiqodlar, xalq odatlari, davlat tili, xalq ijodi, milliy o’yinlar, tarixiy me’morchilik san’ati, ko’pgina an’anaviy ijod turlari tiklandi;

✓ xalq odatlari, marosimlari va bayramlari (Navro’z, Ro’za hayiti, Qurbon hayiti kabilar)ning tiklanishi va yangi bayramlar (Mustaqillik kuni, O’qituvchi va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kuni kabilar)ning joriy etilishi xalq ma’naviy hayotiga yangi ruh va mazmun bag’ishlamoqda;

✓ diniy qadriyatlarning tiklanishi, eski machit va madrasalarning ta’mirlanishi, yangilarining barpo etilishi, diniy adabiyotlar nashr etilishiga keng imkoniyatlar yaratilishi respublikamizda vijdon erkinligini ta’minlamoqda;

✓ o’zbek tilining davlat tili darajasiga ko’tarilishi dilni quvontirmoqda. O’z navbatida, jahon tillarini o’rganish ehtiyoji bizni olamga “yuz tutishimiz”ga, jahon hamjamiyatiga qo’shilishga, umuminsoniy qadriyatlarni yanada kengroq o’zlashtirishimizga yordam bermoqda;

Respublikamizda madaniyat sohasining yangi tizimi vujudga kela boshiadi. Jumladan, Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat kengashi”, “Ta’lim markazi”, “O’zbekkino”, “O’zbeknavo”, “O’zbekraqs”, “O’zbekmuzey”, “O’zbekteatr”, “Badiiy akademiya”, “Milliy madaniy markazlar” kabi ko’plab madaniy-ma’rifiy tashkilotlarning tuzilishi respublika ma’naviyati asosiy sohalarining ravnaq topishiga zamin bo’ldi.

✓ ko’plab nodavlat, notijorat tashkilotlari vujudga keldi.

Jahon madaniyatiga munosib hissa qo’shgan ajdodlarimiz vakillari tavalludlarining yirik sanalarini nishonlash ham xalqimizning eng ulug’vor an’analariga aylanmoqda. Masalan, YUNESKO orqali xalqaro miqyosda:

✓ 1993-yil - Bahouddin Naqshbandiyni 675 yilligi;

✓ 1993-yil - Zahiriddin Muhammad Boburning 510 yilligi, 2003 y. 520 yilligi;

✓ 1994-yil - Mirzo Ulug’bekning 600 yilligi, (Samarqand, Parij);

- ✓ 1995-yil - Mahmud Zamahshariyning 920 yilligi;
- ✓ 1995-yil - Najmiddin Kubroning 850 yilligi;
- ✓ 1996-yil - Amir Temurning 660 yilligi (Samarqand, Parij);
- ✓ 1998-yil - Imom al-Buxoriyning 1225 yilligi;
- ✓ 1998-yil - Ahmad Farg’oniyni 1200 yilligi;
- ✓ 2000-yil - Burhoniddin Marg’inoniyning 910 yilligi;
- ✓ 2000-yil - Kamoliddin Behzodning 545 yilligi;
- ✓ 2001-yil - Alisher Navoiyning 560 yilligi;
- ✓ 2003-yil - Abdulxoliq G’ijduvoniyni 900 yilligi kabi buyuk ajdodlarimizning yubileylari, shuningdek:
- ✓ 1999-yil - “Alpomish” eposining 1000 yilligi (Termiz);
- ✓ 2001-yil - “Avesto”ning 2700 yilligi (Urganch);
- ✓ 2005-yil - Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi (Xorazm) kabi sanalarga bag’ishlangan tadbirlar o’tkazildi.

**O‘zbekistonning qadimgi shaharlari yubileylari, jumladan:**

- ✓ 1997-yil - Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yilligi;
- ✓ 2002-yil - Termiz shahrining 2500 yilligi;
- ✓ 2002-yil - Shahrisabz shahrining 2700 yilligi;
- ✓ 2006-yil - Qarshi shahrining 2700 yilligi;
- ✓ 2007-yil - Samarqand shahrining 2750 yilligi;
- ✓ 2007-yil - Marg’ilonning 2000 yilligi keng nishonlanishi vatandoshlarimizning eng quvonchli kunlariga aylanib ketdi.
- ✓ 2009-yilda Toshkentning 2200 yilligi tantanasi Mustaqilligimizning 18 yilligi bayramiga ulanib ketdi.

O‘zbekistonda bo‘lib o‘tayotgan Toshkent kinofestivali, “Sharq taronalari (Samarqand)”, “Teatr festivali”, “Simfonik musiqa festivali”, “Maqom” kabi xalqaro anjumanlar ham madaniyat bayramlari sifatida xalqimiz qalbidan joy olib ulgurdi.

Mustaqillik yillarida o‘tkazilayotgan “Yangi avlod”, “Kelajak ovozi”, “Vatan yagonadir, Vatan bittadir”, “Yangi nomlar” va boshqa ko‘rik-tanlovlarning o‘z yo‘nalishi, o‘ziga xos maqsad va vazifalari bor.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 - yil 7-aprel PQ-1091-son “Yagonasan, muqaddas Vatan” respublika ko‘rik-tanlovini o‘tkazish to‘g‘risida»gi Qarori mamlakatimiz madaniyati va san’ati, xususan, yoshlar ijodi ravnaqida muhim hodisa bo‘ldi. Bu ko‘rik-tanlovning bosh maqsadi: millatimiz, xalqimiz, eng avvalo, ertangi kunimizning ishonchi bo‘lgan yoshlarimiz qalbidan o‘z ona-Vataniga bo‘lgan mehr va muhabbat, sadoqat tuyg‘ularini uyg‘otish, Vatanni sharafalaydigan, ulug‘laydigan, qadr-qimmatini, sha’ni, shavkatini ifodalaydigan mazmunan teran qo‘shiqlar yaratish, shu bilan birga yoshlar orasidan iste’dod sohiblarini izlab topish va kashf etishdir. Shu bois, ushbu ko‘rik-tanlovni o‘tkazib kelinayotgan barcha tanlovlarning umumlashmasi, desak mubolag’a bo‘lmaydi

O‘zbek san’ati jahonga tanilmoqda, ko‘plab folklor jamoalari, jumladan. Toshkentning “Kamalak”, Andijonning “Sumalak”, Xorazmning “Meros” kabi folklor-etnografik ansambllari xorijiy mamlakatlarga tashrif buyurib, xalqaro anjumanlarda qatnashib, ajnabiylar e’tiboriga nodir san’atimiz durdonalarini havola etishmoqda. Chet ellarda o‘zbek xalq madaniyati va ijodiga oid ko‘plab kitoblar, maqolalar chop etilmoqda. O‘zbek xalq ertaklari, maqollari,

iboralari, afsonalarining Xitoy, Eron, Turkiya, Germaniya va AQSHda nashr etilgani quvonchli holdir. Vatanimizda xalq madaniyatini taraqqiy ettirish borasida ulkan tarixiy ishlar amaiga oshirilganligini butun jahon tan olmoqda. Shuni bemalol aytishimiz mumkinki, mustaqil O‘zbekiston madaniyatining yangi mustahkam poydevori yaratildi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik sharofati bilan xalq ijodining rang-barang turlarining tiklanishi - xalqimizning tarixiy ongi, milliy ma’naviyatini shakllantirish va ravnaq toptirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o‘tish davrida hayotning boshqa jabhalari kabi madaniyat sohasida ham jiddiy o‘zgarishlar, islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ma’lumki, O‘zbekistonda islohotlar mamlakatimizning birinchi prezidenti I.Karimov tomonidan taklif etilgan beshta tamoyil bo‘yicha amalga oshinmoqda. Madaniyat sohasida ham bosh islohotchi - bu davlat. O‘zbekiston hukumati madaniyat va ma’naviyat sohasidagi islohotlarni ustuvor yo‘nalish deb hisoblab, bu boradagi ishlarga jiddiy e’tibor bermoqda.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – T.: Ma’naviyat.
2. Azizxo‘jayev A. *Davlatchilik va madaniyat.* – T.: Sharq, 1997.
3. Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birga quramiz.* – T.: O‘zbekiston.
4. Abdullayev X.U. *San’at tarixi.* – T., 2001.
5. Oydinov N. *O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar.*
6. *O‘zbekistonning yangi tarixi.*
7. Azamat Ziyo. *O‘zbek davlatchiligi tarixi.*
8. Eshov B.J. *O‘zbekiston davlatchiligi tarixi.*
9. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – T.: Ma’naviyat
10. Azizxo‘jayev A. *Davlatchilik va madaniyat.* – T.: Sharq, 1997.
11. Karimov I.A. *Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.*
12. Azamat Ziyo. *O‘zbek davlatchiligi tarixi.*